

Siz – Ostona markazidasiz

TOP-20
mashg'ulot

Shahardagi TOP mashg'ulotlar

- ☐ Ostona ramzi bo'lgan «Bayterek» minorasining 100 metrdan balandroq nuqtasidagi oltin sharga ko'tarilish
- ☐ Ulkan chodir ko'rinishida barpo etilgan «Xan Shatir» savdo ko'ngilochar markazida shopping qilish
- ☐ Mustaqillik maydoni va Doira maydonida (Krugloye) millionlab suratlar olish
- ☐ Mamlakat mustaqilligi va birligi ramzlari – «Mangilik El» zafar arkasi, «Qazaq eli» va «Uli Dala Eli» monumentlarini suratlarga muhrlash
- ☐ Me'mor Norman Foster tomonidan piramida shaklida qurilgan noyob «Tinchlik va totuvlik saroyi»ni ko'rish
- ☐ Shaharning bosh piyodalar ko'chasi – favvoralar, instalyatsiyalar va esdalik sovg'alari do'konlari bilan to'la Nurjol bulvari bo'ylab sayr qilish
- ☐ Restoranlar xiyoboni deb ataladigan Turon prospektida tushlik qilish
- ☐ Ertaknamo sharqona saroyini eslatuvchi «Hazrat Sulton», oppoq Abu Nosir al-Forobiy yoki Markaziy masjidlarida ibodat qilish
- ☐ Qozog'istondagi eng baland (65 metr) Ailand tomosha charxpalagida aylanish
- ☐ Okeanlardan eng uzoq masofada joylashgan Ailand okeanariumida «check-in» qilish
- ☐ Ostonaning tungi chiroqlar yog'dusida fantastik ko'rinishga ega ekaniga ishonch hosil qilish
- ☐ Esil daryosi bo'ylab kemada sayr qilish hamda shahar panoramasi va quyosh botishidan zavqlanish
- ☐ Strit-art yoki shaharning me'moriy ramzlari bo'ylab ekskursiyaga chiqish
- ☐ Shahar aholisi va mehmonlarining eng sevimli dam olish maskani – Markaziy parkni kashf qilish
- ☐ Qozog'iston Respublikasi Milliy muzeyida mamlakat tarixi bilan tanishish
- ☐ Markaziy Osiyodagi eng yirik opera teatri – «Astana Opera»ga tashrif buyurishni rejalashtirish
- ☐ Erkali Raxmadiyev nomidagi Davlat akademik filarmoniyasida mahalliy jamoalarning chiqishlarini tinglash
- ☐ Kulanshi Art Space zamonaviy san'at markazida ko'rgazma yoki mahorat darslariga tashrif buyurish

Shahar tashqarisidagi TOP mashg'ulotlar

- ☐ «Qozog'iston Shveysariyasi» deb ataladigan Burabay milliy bog'ida hordiq chiqarish
- ☐ Qorgaljin qo'riqxonasida qushlarning 350 dan ortiq turi, jumladan, pushti flamingolarni tabiiy muhitda ko'rish

CENTRUMAIR

 **CENTRUM**
HOLIDAYS



Nimalarni olib kelish mumkin?

- Milliy kigiz shippaklar
- Quroq ko'rpa-yostiqlar
- Ot go'shtidan delikateslar
- Milliy uslubdagi kumush taqinchoqlar



Nimalarni tatib ko'rish mumkin?

- Beshbarmoq
- Ot go'shtidan delikateslar
- Boursak
- Palov
- Ayron

